XALQ DEPUTATLARI TOMDI TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 30 - dekabr VI-45-203-5-75-K/22 Tomdi tumani hokimligi

Tomdi tumanidagi Ma’muriy-hududiy birliklari chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 apreldagi “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, Tomdi tuman hokimining 2022 yil 11 oktyabrdagi 158-5-75-F/22-sonli farmoyishiga asosan Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan Tomdi tumanidagi mavjud shaharcha va ovullarning ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniga ko‘ra tuman hududining umumiy perimetri **3389727 metr,** umumiy maydoni **3559503,02 gektar** ekanligi aniqlandi.

Jumladan:

Tomdibuloq ovulining umumiy perimetri 237735 metr ekanligi, umumiy maydoni 235196,61 gektar;

Suketti ovulining umumiy perimetri 484550 metr ekanligi, umumiy maydoni 553205,89 gektar;

Oqtov ovulining umumiy perimetri 490932 metr ekanligi, umumiy maydoni 566164,51 gektar;

Keregetov ovulining umumiy perimetri 507495 metr ekanligi, umumiy maydoni 552308,12 gektar;

Keriz ovulining umumiy perimetri 616303 metr ekanligi, umumiy maydoni 540585,21 gektar;

Shieli ovulining umumiy perimetri 424788 metr ekanligi, umumiy maydoni 448027,53 gektar;

Ayaqquduq ovulining umumiy perimetri 364598 metr ekanligi, umumiy maydoni 356164,94 gektar;

Sharq ovulining umumiy perimetri 248710 metr ekanligi, umumiy maydoni 307317,0 gektar;

“Tomdibuloq” shaharchasining umumiy peremetri 14616 metr ekanligi, umumiy maydoni 533,21 gektar ekanligi aniqlandi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan taqdim etilgan ma’lumotlar fikr va mulohazalarini hamda taklif va tavsiyalarini atroflicha o‘rganib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risidagi” qonunning 10-moddasi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Tomdi tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ijrosi yuzasidan Kadastr agentligi Tomdi tuman bo‘limi boshlig‘i v.b O.Xamdamov tumandagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risidagi axboroti hamda Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan Tomdi tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan tumanda tuzilgan Ishchi guruhining 2022 yil 19 dekabrdagi 01-02/101-son yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

2. Tomdi tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralari belgilash ishlarini yakuniy natijalari to‘g‘risidagi ma’lumot 1-ilovaga hamda ma’muriy-hududiy birliklarning chegaralarini belgilash chegaralarining loyihaviy sxemasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi axborot-matbuot xizmati (N.Ametov) ushbu qarorni

tuman hokimligining “tomdi.uz” rasmiy veb-saytiga joylashtirsin va “Tamdi sharuageri” tuman mahalliy gazetasida e’lon qilsin.

4. Ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

5. Ushbu qarorning tasdig‘i Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashidan so‘ralsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (O.Umarov) hamda Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiya raislari zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **K.T.Aldabergenov**

Xalq deputatlari Tomdi tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-45-203-5-75-K/22-son qaroriga
1-ilova

Tomdi tumanidagi ma’muriy-hududuiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarini yakuniy natijalari to‘g‘risida

M A ‘ L U M O T

T/R	Ma’muriy-hududiy birliklar nomi	Umumiy perimetr (metr)	Umumiy maydoni (gektar)
1	Tomdibuloq ovul	237735	235196,61
2	Suketti ovul	484550	553205,89
3	Oqtov ovul	490932	566164,51
4	Keregetov ovul	507495	552308,12
5	Keriz ovul	616303	540585,21
6	Shiyeli ovul	424788	448027,53
7	Ayaqquduq ovul	364598	356164,94
8	Sharq ovul	248710	307317,0
9	Tomdibuloq shaharcha	14616	533,21
	Tuman bo’yicha jami	**3 389 727**	**3 559 503,02**

Xalq deputatlari Tomdi tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-45-203-5-75-K/22-son qaroriga
2-ilova

Tomdi tumanining ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash chegaralarining loyihaviy

SXEMASI

